

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 338:004:005.591.43(575.1)

XIDIROVA BARCHINOY ILXOMOVNA

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AXBOROT-
KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI AUTSORSINGI
XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH
("O‘ZBEKTELEKOM" AK MISOLIDA)**

08.00.16 – «Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya»

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini
olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: Sh.A.Tursunov
Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent**

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI AUTSORSINGI XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	13
1.1. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari autsorsingi xizmatlarining tutgan oʻrni va mohiyati.....	13
1.2. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari autsorsingi xizmatlari rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlari.....	24
1.3. Oʻzbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari autsorsingi xizmatlaridan foydalanish va rivojlantirish jarayonlari.....	38
Birinchi bob boʻyicha xulosalar	47
II-BOB. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TELEKOMMUNIKATSIYA SOHALARI FAOLIYATIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI AUTSORSINGI XIZMATLARIDAN FOYDALANISH HOLATI.....	49
2.1. “Oʻzbektelekom” AK faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonlarining tahlili.....	49
2.2. “Oʻzbektelekom” AKning raqamli iqtisodiyotni qoʻllash infratuzilmasini holati va xizmat koʻrsatish tizimlari tahlili.....	57
2.3. “Oʻzbektelekom” AK faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari autsorsingi xizmatlaridan foydalanishning iqtisodiy rivojlanishga taʼsirini baholash uslubiyoti	67
Ikkinchi bob boʻyicha xulosalar.....	74
III-BOB. KORXONANING AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI AUTSORSINGI XIZMATLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI OSHIRISH YOʻLLARI	76
3.1. Oʻzbektelekom” AK faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari autsorsingi xizmatlaridan foydalanishning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish.....	76
3.2. “Oʻzbektelekom” AK faoliyatida axborot- kommunikatsiya texnologiyalari autsorsingi xizmatlaridan foydalanish algoritmi va dasturiy modelini ishlab chiqish.....	89
3.3. “Oʻzbektelekom” AK faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning istiqbolli prognoz modellari.....	106
Uchinchi bob boʻyicha xulosalar	123
XULOSA	125
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI.....	127
ILOVALAR.....	134

KIRISH (falsafa doktori dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusi dolzarbligi. Jahonda raqamli texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi dunyo mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarining yanada kuchayishiga sabab bo'lmoqda. 2024-yil yakuniga ko'ra, mamlakatlar raqamli iqtisodiyotining o'sish sur'atlari 115,5 foizni tashkil etib, axborot-texnologiyalarining yalpi ichki mahsulot o'sishiga nisbatan AQSHda – 110,9 foiz, Xitoy Xalq Respublikasida – 110,0 foiz, Hindistonda – 105,5 foizni tashkil etgan»¹. Xalqaro tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, raqamli transformatsiyalash jarayonlarini tezlashtirish va raqamli xizmatlar ko'lamini kengaytirilishning innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqish, jumladan IT-outsourcing xizmatlaridan foydalanishni yanada kengaytirish orqali aloqa va axborotlashtirish korxonalari raqobatbardoshlikka erishmoqdalar.

Yer yuzining barcha mamlakatlarida kuzatilayotgan globallashtirish sharoitida ayniqsa iqtisodiyotni raqamlashtirishda axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini o'z o'rnida foydalanish profitabellikni oshiradi va shuning uchun o'ta ahamiyatlidir. Bu esa tadbirkorlik subyektlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari outsourcingi xizmatlarini yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. Outsourcing xizmatlaridan foydalanish ko'lamini yaxshilash, hamda korxonalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari outsourcingidan foydalanish bo'yicha maqsadli qarorlar qabul qilish va qo'llab-quvvatlashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari outsourcingi xizmatlarini yanada kengaytiruvchi mexanizmlarini va uni optimallashtiruvchi modellarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlarga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Tadqiqotlarga ko'ra, jahon iqtisodchi olimlari raqamlashib borayotgan bugungi global olamda raqamli iqtisodiyotning qiymati va samaradorligini baholash bo'yicha yagona integral indikatorni yaratishda muammolarga duch kelmoqdalar. Buning sabablari albatta eng avvalo statistik va empirik ma'lumotlar tanqisligi, shiddat bilan rivojlanayotgan texnologiyalar, amaliyotdagi institutsional

¹<https://review.uz/post/uzbekistan>

o'zgarishlardir. Bugungi kunda "Big Data" (ulkan ma'lumotlar), "Cloud Computing" (bulut texnologiyasi), "Artificial intelligence" (sun'iy intellekt), "Blockchain technology" (blokcheyn texnologiyalari) kabi informatsion texnologiyalarni O'zbekiston Respublikasida amalda qo'llashning uslubiy jihatlari, shuningdek ularning ijtimoiy sharoitga va iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ta'siri yuzasidan ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ma'lumki, respublikamizda iqtisodiyotni keng qamrovli modernizatsiyalash uchun ko'plab chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur ishlar doirasida raqamli texnologiyalarni amaliyotda implementatsiyasi jarayoni alohida hamiyatga ega. Buning uchun kerakli barcha huquqiy asoslar allaqachon yaratilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevralda chiqargan PF №4947 "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmonida iqtisodiyot raqamlashtirilishini qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy sohalarda davlat boshqaruv darajasini kamaytirish, davlatning xususiy sektorlar bilan har tomonlama foydali hamkorlik qilishi uchun "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishida ustuvor vazifalar belgilab qo'yilgan.

Respublikada shuningdek so'nggi yillarda iqtisodiyotni raqamli modernizatsiyalashga qaratilgan ko'plab islohotlar amalga oshirildi va bu jarayon davom etmoqda. Bu bir qator ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda, davlat boshqaruvi tizimida raqamli texnologiyalar joriy etilayotgani bilan o'z aksini topyapti. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentyabrda chiqargan PF 158-sonli "O'zbekiston-2030 strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni "O'zbekiston – 2030" strategiyasining 57-maqsadi sifatida ushbu jarayonlarga alohida urg'u berilgan. Xususan, "Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, shu orqali mamlakatimizni mintaqaviy "IT – HUB"ga aylantirish, natijada Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Elektron Hukumat" reytingida birinchi TOP o'ttiztaligiga kirishga erishish asosiy maqsad qilib belgilangan². Mazkur vazifalarning ijrosini

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, telekommunikatsiya xizmatlarida IT-outsorsingdan foydalangan holda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning axborot tizimlarini ishlab chiqish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini, hamda iqtisodiy faoliyat subyektlarining axborot tizimlarini ishlab chiqish va qo‘llab-quvvatlash loyihalarini ishlab chiqish kabi vazifalar ilmiy tadqiqotlar asosida hal qilinishi talab etiladi.

Mazkur ilmiy tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 18-fevraldagi PF-5349-son “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-son “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”, 2018-yil 2-sentyabrdagi PQ-3927-son “Raqamli ishonch” raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-maydagi 421-sonli “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish hisobidan aholiga davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda mamlakatda raqamli iqtisodiy tizimga o‘tishni rag‘batlantirish va jadallashtirishga qaratilgan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy axloqiy, shuningdek madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Raqamli iqtisodiyot va uning tarmoq hamda sohalarida AKT tizimlarini qo'llash va foydalanish muammolari, ulardan foydalanish jarayonlarini ekonometrik modellash va statistik tahliliga asoslangan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari ma'lum. Milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlariga raqamli iqtisodiyot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-amaliy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida keng tadqiq etilgan. Ulardan: Y.O.Okoro, A.A.Oloyede, M.Pineda, D.Jabba, W.Nieto-Bernal, L.Wang, J.Shao, Ken neth C.Laudon, Jane P.Laudon, Toshio Obi, D.M.Besanko, Schanley va S.Schaefer, T.Bai va boshqalar ushbu mavzuga alohida e'tibor qaratganlar³.

MDH olimlaridan: A.A.Jolud, I.B.Nazarova, T.V.Dianova N.K.Nores, A.A.Stankevich, D.V.Yevtyanova, M.V.Tiranova, M.L.Kalujskiy va T.N.Yudinalarning asarlarida ham raqamli iqtisodiyotning nazariy va uslubiy masalalari hamda iqtisodiyotni raqamli transformatsiyalashda autsorsingi xizmatlarini takomillashtirish va boshqarish masalalari ko'rib chiqilgan⁴.

Shuningdek, AKTni joriy etishni takomillashtirish masalalari yuzasidan mahalliy olimlardan: S.S.G'ulomov, B.A.Begalov, R.H.Alimov, O.M. Abdullayev, A.T. Kenjabayev, T.S. Qo'chqarov, T.K. Iminov, A.M. Qodirov, Sh.A. Tursunov, A.N. Aripov, I.Ye. Jukovskaya, H.T. Muhitdinov, A.A. Musaliyev, D.A.Abdullayev, T.F.Bekmuratov, M.M.Kamilov, C.K.G'aniyev, A.R.Maraximov, T.N.Nishonboev, R.I.Isayev, N.B.Usmanova, I.X.Siddikov,

³Okoro Y. O. et al. Digital communication and us economic growth: a comprehensive exploration of technology's impact on economic advancement //Computer Science & IT Research Journal. – 2023. – T. 4. – №. 3. – S. 351-367.; Oloyede A. A. et al. Measuring the impact of the digital economy in developing countries: A systematic review and meta-analysis //Heliyon. – 2023. – T. 9. – №. 7.; Pineda M., Jabba D., Nieto-Bernal W. Blockchain Architectures for the Digital Economy: Trends and Opportunities //Sustainability. – 2024. – T. 16. – №. 1. – S. 442.; Wang L., Shao J. Digital economy, entrepreneurship and energy efficiency //Energy. – 2023. – T. 269. – S. 126801.; Ken neth C.Laudon, Jane P.Laudon, "Management Information System: managing the digital firm". Eleventh Edition / Global Edition. Washington; Pearson 2010 c-653 p; Toshio Obi. "The Innovative CIO and e-Participation in e-Government Initiatives".Amsterdam. IOS Press, 2010. 245; Besanko D.M.Schanley and S.Schaefer. Economics of Strategy.5 e. 2009; Bai T. et al. Digital economy, industrial transformation and upgrading, and spatial transfer of carbon emissions: The paths for low-carbon transformation of Chinese cities //Journal of Environmental Management. – 2023. – T. 344. – S. 118528.

⁴ Jolud A.A. Деловой сектор, потребители и полезность электронной коммерции // Экономические науки. – 2011. – № 76. – S. 33-36. Nazarova I.B. Dianova T.V. Электронная торговля: преимущества, проблемы и «эффект скольжения» при снижении транзакционных издержек // Вестник МГИМО Университета. – 2012. – № 4 – S. 173-178. Nores N.K., Stankevich A.A., Цифровая экономика: состояние и перспективы развития. Инновационные кластеры в цифровой экономике: теория и практика: труды научно-практической конференции, 2017; T.N.Yudina, Осмысление цифровой экономики, «Экономика и бизнес, 2016-s 57; Yevtyanova D.V., Tiranova M.V. Цифровая экономика как механизм эффективной экологической и экономической политики // Интернет-журнал "Науковедение" Том 9, №6 2017.

A.E.Allayev, D.T.Muxammadiyeva, G.B.Sherboboyeva va boshqalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan⁵. Xususan, O‘zbekistonda murakkab strukturaga ega bo‘lgan aloqa tarmoqlarini xizmatlaridan biznes subyektlarining samarali foydalanishi, axborot kommunikatsion texnologiyalari autsorsingi xizmatlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirishning turli jihatlari, jumladan, samaradorlik ko‘rsatkichlari tavsiflari, tizim, tarmoqlarni boshqarish samaradorligini tahlil qilish va turli baholash usullari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari yetarli darajada olib borilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Mazkur ilmiy dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Iqtisodiyot tarmoqlari innovatsion rivojlanishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi strategik yo‘nalishi bilan o‘zaro uzviy bog‘liqlikda bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari autsorsingi xizmatlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilar:

raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari autsorsingi xizmatlarining o‘rni va ularning mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish;

⁵ Gulyamov S.S., Abdullayev O.M. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar//Toshkent-2019.-T.:Fan 2010; Alimov R.X. Begalov B.A. Axborot-kommunikatsiyalar bozorining shakllanishi va rivojlanishi.Toshkent-2001; Kenjabayev A.T. “Tadbirkorlik faoliyatida axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari” Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.Toshkent-2005; Kadirov A.M. “Формирование информационного общества в Узбекистане: зарубежный опыт, тенденции и перспективы”, Toshkent, “Iqtisodiyot”-2015; Tursunov Sh.A. “Telekommunikatsiya sohasida investitsiya faoliyatini samarali boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish”,Monografiya, Toshkent, “Tamaddun” nashriyoti, 2016; Aripov A.N., Iminov T.K.. O‘zbekiston axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi menejmenti masalalari. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2005. – 300 b.; Qo‘chqarov T.S Raqamli iqtisodiyot sharoitida O‘zbekiston Respublikasi g‘aznachiligi axborot tizimini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi Toshkent-2019-y.; Jukovskaya I.Y Raqamli iqtisodiyot shakllanishi sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini statistika faoliyatida foydalanish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi- Toshkent 2020.; Muxitdinov X.A. Проблемы повышения финансово-экономической эффективности как ключевой фактор нового технологического уклада в экономике: монография / Под ред.- М.: Тривант 2009. – 304 с.; Bekmurodov A.B., Musaliyev A.A. Информационный бизнес. Учебное пособие. – Т.: ТГЕУ, 2006. – 288 с.

O‘zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi rivojlanishi va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

rivojlangan mamlakatlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari outsorsingi xizmatlarini rivojlanish holati va zamonaviy modellarini aniqlash;

“O‘zbektelekom” AKning O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishdagi o‘rnini baholash;

“O‘zbektelekom” AKning raqamli iqtisodiyotni qo‘llash infratuzilmasining holati va xizmat ko‘rsatish tizimlarini tahlil qilish;

“O‘zbektelekom” AK faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari outsorsingi xizmatlaridan foydalanish holatini tahlil qilish;

“O‘zbektelekom” AK axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarini ko‘rsatishda IT-outsorsingdan foydalanishning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi va unda faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalar, xususan “O‘zbektelekom” AK ning iqtisodiy faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari outsorsingi xizmatlarini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, dialektik tadqiqot, induksiya va deduksiya, monografik kuzatuv, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, ekspert baholash, iqtisodiy-statistik, ekonometrik modellashtirish, neyro-noravshan baholash, kuzatuv, abstraksiyalash, ekstrapolyatsiya kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “outsorsing xizmatlari” tushunchasining iqtisodiy mazmuni tashkilot yoki kompaniya o‘zining ayrim vazifa va jarayonlarini mustaqil tomonlarga, ya’ni tashqi ixtisoslashgan kompaniyalarga topshirish amaliyoti axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari (tashkiliy, texnik) va tamoyillarini, xalqaro talablar va qoidalarni

hisobga oladigan milliy axborot mahsuloti va xizmatlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari autsorsingdan foydalanish nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

“O‘zbektelekom” AKda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘lamini oshirish va raqamlashtirishning yangi dasturiy vositalarini joriy etish uchun qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash tizimi “IT-autsorsingdan foydalanish bo‘yicha tashkiliy tuzilmasi”ni yo‘lga qo‘yish asosida takomillashtirilgan;

“O‘zbektelekom” AKda IT-autsorsingdan foydalanish bo‘yicha qarorlar qabul qilishda korxonaning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarini ko‘rsatishni iqtisodiy jihatdan optimallashtirishga ixtisoslashgan kichik guruhlar faoliyatini tashkil etish taklifi asoslangan;

raqobat sharoitida ichki va tashqi muhit omillarini kompleks tahlil qilgan holda korxonalar faoliyatini raqamlashtirishda raqamli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, raqamli rivojlanish indikatorlarini hamda moliyalash vositalarni hisobga olgan xolda “O‘zbektelekom” AKning 2030-yilga qadar xizmat ko‘rsatish hajmining prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

“O‘zbektelekom” AK faoliyatida AKTni joriy etilishining hozirgi holati o‘rganilib chiqilgan va rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar hamda takliflar ishlab chiqilgan;

“O‘zbektelekom” AK faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishdagi muammolar va ularni yechish yo‘llari hamda korxonada IT-autsorsingdan foydalanish bo‘yicha qarorlar qabul qilishni qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy usullari asoslab berilgan;

korxonada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarini ko‘rsatishda IT-autsorsingdan foydalanish bo‘yicha tashkiliy tuzilmasini yo‘lga qo‘yish asosida takomillashtirilgan;

“O‘zbektelekom” AK ning IT-autsorsingdan foydalanish bo‘yicha qarorlar qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi algoritim va dasturi ishlab chiqilgan.

“O‘zbektelekom” AKda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning 2030-yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, monografik tahlil va statistik ma’lumotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, muhim ilmiy xulosalarni asoslashda zamonaviy ekonometrik usullardan foydalanilganligi, empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil va talqin etilganligi, tegishli xulosa, takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflardan aloqa korxonalari, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi va uning tasarrufidagi korxonalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali rivojlantirishga oid nazariy-metodologik va uslubiy yondashuvlar shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ilmiy tadqiqot davomida “O‘zbektelekom” AKda AKTni takomillashtirish bo‘yicha olingan xulosa va nazariy bilimlardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligida, Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda uning tasarrufidagi korxonalarda, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining o‘quv dasturlari, o‘quv-uslubiy majmualar, ma’ruzalar matni, keys stadilar, o‘quv qo‘llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda korxonalarda AKTdan samarali foydalanish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “outsorsing xizmatlari” tushunchasining iqtisodiy mazmuni tashkilot yoki kompaniya o‘zining ayrim vazifalarini mustaqil tomonlarga, ya’ni tashqi ixtisoslashgan tashkilot yoki kompaniyalarga topshirish amaliyoti axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari (tashkiliy, texnik) va tamoyillarini, xalqaro talablar va qoidalarni hisobga oluvchi milliy axborot mahsuloti va xizmatlarida axborot kommunikatsion texnologiyalari outsorsingidan foydalanish nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid

nazariy – uslubiy ishlanmalardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etiluvchi “Raqamli iqtisodiyot” darsligini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya instituti qoshidagi muvofiqlashtiruvchi kengashning 2024-yil, 26-apreldagi 5-sonli bayonnomasi, nashr ruxsatnomasi №5-93). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida talabalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari (tashkiliy, texnik) va tamoyillarini, xalqaro talablar va qoidalarni hisobga oluvchi milliy axborot mahsuloti va xizmatlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari outsorsingdan foydalanish nuqtai nazaridan takomillashtirilgan “outsorsing xizmatlari” tushunchasi yuzasidan yangi nazariy bilimlarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

“O‘zbektelekom” AKda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘lamini oshirish va raqamlashtirishning yangi dasturiy vositalarini joriy etish uchun qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash tizimi “IT-outsorsingdan foydalanish bo‘yicha tashkiliy tuzilmasi”ni yo‘lga qo‘yish asosida takomillashtirish taklifi “O‘zbektelekom” AKning “Telekommunikatsiya tarmoqlarini istiqbolli rivojlantirish” bo‘limi faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zbektelekom” AKning 2024-yil 25-noyabrdagi №27-03-23/3918-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni joriy etish asosida “O‘zbektelekom” AKning tomonidan 2023-yilda 25 dan ortiq loyihalari outsorsing kompaniyalari tomonidan bajarilgan va natijada telekommunikatsiya sohalaridagi xarajatlari 0,7 foizga qisqargan;

“O‘zbektelekom” AKda IT-outsorsingdan foydalanish bo‘yicha qarorlar qabul qilishda korxonaning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarini ko‘rsatishni iqtisodiy jihatdan optimallashtirishga ixtisoslashgan kichik guruhlar faoliyatini tashkil etish taklifi “O‘zbektelekom” AKning “Telekommunikatsiya tarmoqlarini istiqbolli rivojlantirish” bo‘limi faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zbektelekom” AKning 2024-yil 25-noyabrdagi №27-03-23/3918-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni joriy etish asosida “O‘zbektelekom” AKning outsorsing kompaniyalarni tanlash bo‘yicha aniq mexanizmi yaratilib, outsorsingdan foydalanish risklarini kamayishga erishilgan;

raqobat sharoitida ichki va tashqi muhit omillarini kompleks tahlil qilgan holda korxonalar faoliyatini raqamlashtirishda raqamli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, raqamli rivojlanish indikatorlarini hamda moliyalash vositalarni hisobga olgan holda “O‘zbektelekom” AKning 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan xizmat ko‘rsatish hajmining prognoz parametrlari “O‘zbektelekom” AKning Axborot texnologiyalarni rivojlantirish boshqarmasining “Innovatsiyalar va axborot tizimlarini tatbiq etish” bo‘limi faoliyatida foydalanilgan (“O‘zbektelekom” AKning 2024-yil 25-noyabrdagi №27-03-23/3918-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur prognoz parametrlaridan foydalanish asosida “O‘zbektelekom” AK raqamli transformatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan chora tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 13 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonuniga asosan “Korxonada IT autsorsingdan foydalanish bo‘yicha qarorlar qabul qilishni qo‘llab quvvatlovchi dasturiy vosita” nomli dasturiga №DGU 44759 raqamli guvohnomasi olingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e’tirof etgan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda va 8 tasi nufuzli xorijiy ilmiy jurnallarda, hamda 1 ta monografiya nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 143 betdan iborat.